

FRANSUZ MILLIY KUTUBXONASIDAGI NAVOIY KULLIYOTIDAN BIR G'AZAL

Akrom Abduxamidovich MALIKOV

Tayanch doktorant

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ГАЗЕЛЬ ИЗ КУЛЛИЯТА НАВОИ В НАЦИОНАЛЬНОЙ БИБЛИОТЕКЕ ФРАНЦИИ

Акром Абдухамидович МАЛИКОВ

Докторант

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы

имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан

A GHAZAL FROM THE COLLECTION (KULLIYAH) OF NAVOI IN THE FRENCH NATIONAL LIBRARY

Akrom Abdukhamidovich MALIKOV

Doctoral student

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

Tashkent, Uzbekistan akrommalik@hotmail.com

UDC (УО'К, УДК): 801.73:821.512.133Навои

**For citation (iqtibos keltirish uchun,
для цитирования):**

Malikov A.A. Fransuz milliy kutubxonasidagi Navoiy kulliyotidan bir g'azal // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 6 (53). — B. 266-286.

<https://doi.org/10.36078/1704357778>

Received: October 20, 2023

Accepted: December 17, 2023

Published: December 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning Parij shahridagi Fransuz Milliy kutubxonasida Turc 316 va Turc 317 inventar raqami bilan saqlanayotgan ikki jilddan iborat kulliyotdan o'rin olgan "G'aroyib us-sig'ar" devonida 26-tartibda kelgan 9b–10a-betlaridagi g'azal kontekstual metod asosida tahlil qilingan. Bu g'azal Alisher Navoiy mukammal asarlari to'plami 20-jildida rasmiy devonlarga kiritilmagan g'azallar qatorida keltirilgan. Maqolaning yangiligi shundaki, mazkur matn hali navoiyshunoslar tomonidan tahlil yoki sharhga tortilgani kuzatilmagan, qolaversa, unda g'azal kontekstual tahlil metodologiyasi asosida o'rganilgan. G'azalga Alisher Navoiy ijodi kontekstining bir qismi, Alisher Navoiy ijodiy konseptini namoyon etuvchi bir qirra sifatida qaralgan va unda tarannum etilgan majoziy muhabbat tasavvuf ma'rifatining o'zak g'oyalardan ekanligiga urg'u berilgan. Matn bevosita Alisher Navoiy kulliyotining faksimil elektron nusxasidan foydalanilgan holda tadqiqqa tortilgan, Alisher Navoiy istifoda etgan eski turkiy alifbo va imlodagi taqdim qilingan.

Kalit so'zlar: kulliyot; devon; matn; g'azal; kotib; sharh; tahlil; taqin; kontekst; kontekstual tahlil; metodologiya.

Аннотация. В статье газель "Гараиб ус-сигар" в двухтомной коллекции, хранящейся в Национальной библиотеке Франции в Париже под инвентарными номерами Turc 316 и Turc 317, Алишера Навои анализируется на основе контекстуального метода. Эта газель включена в 20-й том сборника совершенных произведений Алишера Навои среди газелей, не вошедших в официальные книги. Новизна статьи заключается в том, что данный текст до сих пор не анализировался и не

комментировался навоиоведами, более того, газель изучается на основе методологии контекстуального анализа. Газель рассматривается в контексте творчества Алишера Навои как грань, раскрывающая творческую концепцию Алишера Навои, и подчеркивается, что воспеваемая в ней метафорическая любовь является одной из основных идей суфийского просветительства. Текст был исследован непосредственно с факсимильной электронной копии сборника Алишера Навои, представленной на старом тюркском алфавите и в орфографии, которые использовал Алишер Навои.

Ключевые слова: куллият; диван; текст; газель; каллиграф; комментарий; анализ; интерпретация; контекст; контекстуальный анализ; методология.

Abstract. the following study analyses the ghazal on pages 9b-10a of the book "Gharayib al-sighar" in the collection of two volumes stored in the National Library of France in Paris with inventory numbers Turc 316 and Turc 317 of Alisher Navoi based on the contextual method. This ghazal is included in the 20th volume of Alisher Navoi's collection of perfect works among the ghazals that are not included in the official books. The article's novelty is that Navoi scholars have not yet analyzed or commented on this text. Moreover, the ghazal is studied based on the methodology of contextual analysis. The ghazal is considered as a part of the context of Alisher Navoi's creativity, as an edge that shows the creative concept of Alisher Navoi, and it is emphasized that the metaphorical love praised in it is one of the core ideas of Sufism enlightenment. The text was researched directly using a facsimile electronic copy of Alisher Navoi's collection, presented in the old Turkish alphabet, which was used by Alisher Navoi.

Keywords: kulliyat; divan; text; ghazal; scribe; comment; analysis; interpretation; context; contextual analysis; methodology.

1. Kirish

Mumtoz adabiyot matnlarini qo‘lyozma manbalardan kirill yoki lotin alifbolariga tabdil qilish matnchilik yo‘nalishining vazifalaridandir. Mazkur ilmiy faoliyat quyidagi prinsiplar asosida olib boriladi:

1. Muayyan muallifning biror asari tanlab olinadi.
2. Bu asar nusxalari qaysi jahon qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgani nashr etilgan kataloglar yordamida yoki shu fondlarga ilmiy ekspeditsiya amalga oshirish bilan aniqlanadi.
3. Mazkur nusxalarning eng qadimiy va mo‘tabarlari qaysi ekanligi, qo‘lyozma sifati, to‘liqligi, nuqsoni kamligi, kolofoni va kotibining ismi borligiga xulosa qilinadi.
4. Aniqlangan qadimiy va mo‘tabar nusxalar o‘zaro solishtiriladi, solishtirish jarayonida tushib qolgan so‘zlar, o‘rni almashgan so‘zlar, farqli yozilgan so‘zlar, imlodagi tafovutlar ilmiy apparatda qayd etib boriladi.
5. Ma‘lum va mavjud nusxalarning barchasi qiyosga tortilgan bo‘lsa, tadqiqotchining xulosasi asosida tanqidiy matn tuziladi, agar muayyan davr yoki geografik hududdagi nusxalar tadqiqqa tortilgan bo‘lsa, yig‘ma-qiyosiy matn tartib beriladi. Mazkur faoliyat jarayoni

ko‘lamiga qarab PhD (ilgari nomzodlik) yoki DSc (avval doktorlik) dissertatsiyalarda aks ettiriladi.

Alisher Navoiy ijodini tadqiq qilishda dastlabki yirik va jiddiy ishlar aynan amaliy matnshunoslik (matnchilik) doirasida amalga oshirilganiga guvoh bo‘lamiz. Xususan, I. Sulton (18), G‘. Karimov, H. Sulaymonov (17), P. Shamsiyev (21; 22), L. Xalilov (19), S. G‘aniyeva (21), M. Hamidova (20), H. Islomov (15), M. Rashidova (16), Y. Tursunov (3) va boshqalarning yirik ilmiy izlanishlari shu yo‘nalish bo‘ylab kechgan.

Ismlari zikr etilgan matnshunoslarning asosiy xizmatlari Alisher Navoiy ijodiy merosini kirill alifbosiga muvaffaqiyatli tabdil qilib berish, bir necha nusxalar qiyosi asosida ishonchli, muallif dastxatiga yaqin variantni chop qilish, shu orqali boshqa tadqiqotlarga yo‘l ochishdan iborat bo‘ldi deyilsa, xato bo‘lmasa kerak. Alohida ahamiyatli jihati shundaki, Alisher Navoiyning asosiy matnlarini kirill yozuviga tabdil qilgan S. Ayniy, G‘. G‘ulom, S. Mutallibov, G‘. Karimov, H. Sulaymonov, P. Shamsiyevlar sobiq Sovet tuzumi hokmiyati yurtimizda o‘rnatilib, eski turk yozuvi iste‘moldan chiqarib tashlanmasidan avval savod chiqarishgan, ular asosiy bilimlarni eski turkiy alifboda olganlar. Qolaversa, Alisher Navoiy asarlari tanqidiy matnlarini tuzish ishlari O‘zbekistonda ilk bor akademik E. E. Bertels boshchiligida amalga oshirilgan (17, 19-20). Uning muammoga yondashish metodologiyasi alohida o‘rganiladigan masalalardan biri bo‘lib, uning bilvosita va bevosita shogirdlari ishlariga nazar solsak, ayrim xulosalarga kelish mumkin. Xususan, asosiy maqsad asarlarning muallif variantini – shoirning so‘nggi tahriridan o‘tgan, ishonchli shaklini tiklashdan iborat deb ko‘rsatilgan va bunga so‘zimiz avvalida ta‘kidlab o‘tilgan yo‘ldan borilgan.

Amaliy matnshunoslik (matnchilik)ning sinovdan o‘tgan bu metodlari o‘zini qaysidir ma‘noda oqlagan deb ayta olamiz. Ammo tadqiqotchilarning asosiy yutug‘i — eski turk alifbosini mukammal bilishlari bilan bog‘liq edi. Alisher Navoiy asarlari kichik miqdordagi juz‘iy xatoliklar bilan nashr etilganini hisobga olmasak, akademik nashr deb atalgan mukammal asarlar to‘plami va boshqa nashrlar ko‘plab tadqiqotchilar uchun manba bo‘lib xizmat qildi. Ayni paytda, mazkur xatoliklar Alisher Navoiy asarlarining keng miqyosda sharhlash ishlariga ham muayyan to‘siqlarni yuzaga keltirgan deb o‘ylaymiz, bu haqida V. Rahmonovning ayrim mulohazalari diqqatga sazovor. Kezi kelganda aytib o‘tish joizki, V. Rahmonov e‘tirozlarini qaysi qo‘lyozmaga tayanib bildirayotgani uning birorta maqolasida ko‘rsatib o‘tilmagan, shu jihat uning qarashlarining ilmiy qiymatiga biroz soya soladi degan fikrdamiz (26, 244–377).

O‘tgan asrning oxiriga kelib, navoiyshunoslikda shunday manzara hosil bo‘ldi: amaliy matnshunoslikka oid asosiy ishlar 80-yillargacha amalga oshirib yakunlangan, 90-yillarda qilingan M. Hamidova, H. Islomov, M. Rashidova ishlari ko‘lam jihatdan o‘zidan avvalgilarning tadqiqotlariga teng kelmasligi ko‘rinib turibdi, sifat masalasi esa hali tekshirilishi kerak bo‘lgan

muammolardan sanaladi; buning hosilasi o'laroq, 1987-yildan boshlangan yirik ish — Alisher Navoiy asarlarining to'liq matnlarini 20 jildda chop etish 2003-yilga kelib yakunlandi. Bu navoiyshunoslikning 2003-yilga qadar erishgan eng jiddiy amaliy natijalaridan bo'ldi deb aytish mumkin.

XXI asrning chorak qismi nihoyalab bormoqda, ammo Y. Tursunov ishini istisno qilsak, Alisher Navoiy asarlari tanqidiy matnini tuzish borasida biror katta ishni uchratmaymiz. Shuningdek, amalga oshirilgan tadqiqotlar — tanqidiy matnlarga ham ochiq va shaffof ilmiy munosabatlar ko'zga tashlanmaydi. Ayrim mutaxassislarning mulohazalari esa keng monografik planga chiqmagan. Holbuki, dastlabki tadqiqotlarni amalga oshirgan matnshunoslar — I. Sulton, H. Sulaymonov, P. Shamsiyevlarning ishlarida matnshunoslik izlanishlariga o'ta talabchanlik bilan munosabat bildirilganiga guvoh bo'lamiz, xususan, H. Sulaymonov 1961-yilgacha Alisher Navoiy asarlari matnlarini chop qilish va tanqidiy matnlarini tayyorlashga oid tajribalarni sinchiklab o'rganib, har bir ishga tanqidiy yondashib, nuqson va kamchiliklarni keskin ohangda bayon qilgan, uning to'xtamiga ko'ra o'sha davrdagi birorta ham matnshunoslik tadqiqoti ilmiy-akademik me'yorlarga javob bermaydi, ayniqsa, "Xamsa" dostonlari tanqidiy matnlarini tuzish bilan shug'ullangan P. Shamsiyev ilmiy faoliyati va prinsiplariga nisbatan tutgan pozitsiyasi o'ta tanqidiy bo'lganini ko'ramiz. Mazkur kuzatishlar bugun navoiyshunoslikdagi tadqiqotlarni tahlil qilishda ham tajriba sifatida asqotadi, ilmiy yangiliklarni qo'lga kiritishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi degan fikrdamiz.

Navoiyshunoslikning istiqboldagi masalalarini aniqlab olish va shu yo'nalishda jiddiy va tizimli tadqiqotlarni olib borish dolzarb muammo sifatida kun tartibida turibdi deb o'ylaymiz. Biz bu borada quyidagi fikrlarni ilgari suramiz:

1. Alisher Navoiy asarlari tanqidiy matnlarini tayyorlash hamda ilmiy-ommabop nashrlarni chop etish bilan bog'liq bo'lgan barcha tajribalarni umumlashtirish, har bir ish metodologiyasini aniqlash va tuyg'u, shaxsiy hissiyotlardan xoli tarzda xolis ilmiy baho berish.

2. Oxirgi yarim asrda navoiyshunoslikda ilmiy-tanqidiy yoki yig'ma-qiyosiy matn tuzish bilan bog'liq tadqiqotlarning yo'qligining asosiy omillardan biri alifbo masalasiga aloqador deb bilamiz. Yosh tadqiqotchilar orasida Alisher Navoiy asarlarini bevosita qo'lyozmadan o'qiy oladiganlar juda kam. Asl matnga suyanib tadqiqot olib borilmasa, xulosalarning ilmiy tayanchi mo'rt va ishonchsiz bo'lish ehtimoli yuqoriligicha qoladi. Demak, yetishib kelayotgan filologiya mutaxassislari tahsilida eski matnlarni, xususan, Alisher Navoiy matnlarini qo'lyozmadan to'g'ridan-to'g'ri o'qish va tadqiqot olib borish ko'nikmasini shakllantirish, mustahkamlash borasida amaliy ishlarni yangi bosqichga olib chiqish kerak. Bu borada ta'lim jarayonlarida yangi metodlarni joriy qilish, xususan, matn o'qish soatlarini ko'paytirish, qo'lyozmalar tanishish amaliyotini kengaytirish, qo'lyozma fondlari bilan

hamkorlik ishlarini yuqori darajaga ko'tarish kabi amaliy ishlarni tavsiya qilamiz.

3. Alisher Navoiy asarlari qo'lyozmalarini faksimil nashr qilish tajribasi H. Sulaymonovdan boshlangan edi, 1969-yil nashr qilingan "Ilk devon" ko'plab tadqiqotchilar uchun ishonchli manba o'laroq xizmat qildi. Lekin bu xayrli ish to'xtab qoldi. Bu ishni davom ettirish haqidagi takliflar ko'p bora aytilmoqda, amaliy harakatlar boshlanadi degan umidda yana bir fikrni bildirmoqchimiz, ya'ni Alisher Navoiy asarlari matnlarini tadqiqotchilar, sharqshunoslar, filologiya yo'nalishi talabalari, magistrleri hamda keng kitobxonlar ommasi uchun uchun Navoiy davri yozuvi va alifbosida nashr qilish ishlarini boshlash kerak. Bunda Navoiy kulliyotlari tajribasiga suyanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz (Alisher Navoiy kulliyotlari mundariyasi, asarlarni joylashish tartibi va tarkibi haqida boshqa ishlarimizda to'xtalamiz).

4. Matnshunoslik amaliy va nazariy matnshunoslik degan ikki katta qismga bo'linishi ma'lum (27, 11). Tanqidiy matn tuzish tajribalarini davom ettirgan holda tadqiqot metodologiyasiga nazariy matnshunoslikka oid izlanishlarni ham olib kirish kerak degan fikrdamiz. Buning uchun nazariy matnshunoslik asoslarini tartibga solish, matnlarni kontekstga suyanib tahlil qilish, umuman, matnlarni kontekstual tahlil metodologiyasi asosida o'rganishning nazariy asoslarini o'rganish va tadqiqotlarga joriy qilish lozim.

Ushbu maqoladagi asosiy masala ham metodologiya muammosi bilan bog'liq bo'lib, bu borada ikki nuqtaga diqqat qaratmoqchimiz:

- 1) kontekst, matni kontekstual tahlil qilish muammosi;
- 2) Alisher Navoiy matnlarini kontekstual tahlil metodologiyasiga tayanib o'rganish masalasi.

Asosiy qism. Tahlil qilmoqchi bo'lganimiz g'azal matni ko'plab tadqiqotlar uchun manba vazifasini bajarayotgan, To'pqopi saroyi muzeyi kutubxonasida Revan 808 inventar raqami bilan saqlanayotgan mo'tabar kulliyot tarkibidagi "G'aroyib us-sig'ar"da uchramaydi. Mukammal asarlari to'plami 20-jildida rasmiy devonlarga g'azallar nomi ostida chop etilgan, shuningdek, F. Sulaymonova nashrga tayyorlagan "Ayyomi vasl o'ldi yana" to'plamidan ham o'rin olgan (8, 7).

F. Sulaymonovaga ko'ra mazkur va shu kabi matnlar Navoiy "Xazoyin ul-maoniy"ga ongli ravishda kiritilmagan (8, 4). Hozircha bizga Navoiyning eng mo'tabar bo'lgan kulliyotlarining To'pqopi va Parij nusxalari yaratilgan davrlar — 1496- va 1527-yillar orasida shoirning shaxsiy tahriri ostida o'zgartirilgan boshqa "G'aroyib us-sig'ar" nusxasi ma'lum emas. Matnning Parij kulliyoti tarkibiga kiritilish xattot Ali Hijroniyning ijodiy yondashuvimi yoki u Alisher Navoiy tahriridan o'tgan boshqa "G'aroyib us-sig'ar"ga tayanib bu ishni amalga oshirganmi – bu savolning javobini topish uchun aynan "G'aroyib us-sig'ar"ning muallif hayotlik chog'i va u davrga eng yaqin bo'lgan bir asrga oid qo'lyozmalarini qiyosiy o'rganib chiqish zarurati bor deb o'ylaymiz. Taxmin qilish mumkinki, Ali Hijroniy kulliyotni tartiblash jarayonida Alisher Navoiyning nazoratidan

o'tgan manbalarga tayangan bo'lish ehtimoli katta. Ana shu omil kulliyotning nisbatan mukammal, ayni paytda bizning ixtiyorimizdagi eng to'liq nusxa (19,14) bo'lishini ta'minlagan. Ammo Revan 808 da bo'lmagan va Turc 317 ga kirgan g'azal faqat bu emas, hozirga qadar bizning aniqlashimizga ko'ra 9 g'azal matni Revan 808 da yo'q, ammo Parij kulliyoti tarkibida bor.

Shu o'rinda Parijda saqlanayotgan bu kulliyot mundarijasi haqida muxtasar ma'lumot berib o'tsak.

Parijdagi Fransuz Milliy kutubxonasida saqlanayotgan bu nusxa Alisher Navoiyning ikki jilddan iborat kulliyoti bo'lib, u Ali Hijroniy tomonidan 1526–1527-yillarda ko'chirilgani ma'lum. Mazkur kulliyot Turc 316 va Turc 317 raqamlari bilan ro'yxatga olingan va birinchi jildning 2a-sahifasida sakkiz qirrali doira naqshni ko'ramiz. Naqsh ichidagi ranglar to'q zangori bo'lib, nafis va yuksak didan darak beradi. Naqsh ichiga aylana bo'ylab o'ngdan chapga qarab kichik doirachalar ichiga kulliyotdagi asarlar tartibi (mundarija) yozilgan:

1. “Munojot”.
2. “Hadisi Arba'in”.
3. “Siroj ul-muslimiyn”.
4. “Nazm ul-javohir”.
5. “Nasoyim ul-muhabbat”.
6. “Lison ut-tayr”.
7. “Hayrat ul-abror”.
8. “Farhod va Shirin”.
9. “Majnun Layli”.
10. “Sab'ai sayyor(a)”.
11. “Saddi Iskandariy”.
12. “Xutbai devon”.
13. “G'aroyib us-sig'ar”.
14. “Navodir ush-shabob”.
15. “Badoe' ul-vasat”.
16. “Favoyid ul-kibar”.
17. “Mezon ul-avzon”.
18. “Muhokamat ul-lug'atayn”.
19. “Majolis un-nafois”.
20. “Xamsat ul-mutahayyirin”.
21. “Tarixi anbiyo”.
22. “Tarixi muluki Ajam”.
23. “Holoti Sayyid Hasan va Pahlavon Muhammad”.
24. “Vaqfiya”.
25. “Munshaot”.

Turc 317 inventar raqami bilan saqlanayotgan ikkinchi jild asli “Badoe' ul-bidoya”ga yozilgan debocha bilan boshlanadi. Ana shu nusxaning 9b-sahifasining oxirgi 3 qator, 10a-betning birinchi qatoridan o'rin olgan g'azalni tahlil uchun tanlab oldik. Bu g'azal hali navoiyshunoslarimiz tomonidan tahlilga tortilmagani hamda matn katta ehtimol bilan Alisher Navoiy umrining so'nggi yillariga (balki oylariga) tegishli bo'lgani uchun ham diqqatimizni tortdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kontekst soʻzi lotincha “contextus” soʻzidan olingan boʻlib, “oʻzaro bogʻlanish, aloqa” maʼnolarini ifodalaydi. Uning bir qancha istilohiy maʼnolari mavjud. Xususan, dastlabki taʼriflarda “... adib oʻz soʻzi maʼno-mohiyatini toʻgʻri tushuntirish uchun asarning bir qismini boshqa qismi bilan qiyoslash” (30) deyilsa, 2003-yil nashrdan chiqqan “Katta madaniyatshunoslik istilohlari lugʻati”da: “... inson faoliyati natijalarining ongli maʼnosini oydinlashtirishga imkon beradigan ijtimoiy-tarixiy va madaniy sharoitlarning umumiy mazmuni” deb taʼriflangan (30).

“Fan falsafasi va epistemologiyasi qomusi”da qayd etilishicha, kontekst atamasi barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarda bugungi kunda juda keng qoʻllanmoqda, xususan, falsafa, germenevtika, lingvistik va boshqa sohalarda buni kuzatish mumkin (30).

Yana boshqa qarashlarga koʻra kontekst matnning alohida ajratilgan boʻlagi (29). U matnning umumiy maʼnosini tushunish uchun oʻziga mos keladigan birlik bilan birgalikda mazmun ifodalaydi. Masalan, “Aeroflot uchogʻida uching!” jumlasida “aeroflot” va “uching” kontekstlari “uching” soʻzining tugal mazmuni yuzaga chiqishi uchun xizmat qilmoqda.

Yaʼni kontekst markazda turgan asl mohiyatni toʻliq va toʻgʻri anglash uchun xizmat qiladigan vaziyat, manzaradir.

Muallif oʻzi aytishni istagan maʼnoni resipientga namoyish qilish maqsadida kontekst barpo qiladi. Kontekst matnning turli qirralarini birlashtiradi, matnni oʻrtaga qoʻyadi, matnni oʻz ichida saqlaydi. Kontekst gʻoyib boʻlsa, matn ham gʻoyib boʻladi. Matn gʻoyib boʻlsa, kontekstning mohiyati va maqsadi yoʻqoladi.

Matn — yozuvchi yoki shoirning ongida oʻz tarixiga ega hosila boʻlib, uning qogʻozga tushishi, mavjud boʻlishi, turgʻun holi harakatdagi jarayondir. Matnning tarixi u gʻoya yoki tushuncha sifatida muallif ongida paydo boʻlishiga qadar kechib oʻtgan bosqichlardan iborat boʻladi.

Kontekst muayyan zamon, makon chegarasida ham oʻzini koʻrsatadi. Masalan, “... qayta qurish voqealari kontekstida Sobiq Shoʻro respublikalarida ijtimoiy-siyosiy harakatlar faollashdi” axborotida tarixdagi qayta qurish, oshkoralik yillari kontekst sifatida koʻrilmogʻda, demak, bu kontekstdagi hech bir voqeani aynan qayta qurish va oshkoralik hodisasidan ayri tahlil qilish imkonsiz.

Kontekst tasviriy sanʼatda ham qoʻllanilishi mumkin. Masalan, P. Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida Kamoliddin Behzodning Shayboniyxon suratini ishlagani hikoya qilinadi. Yozuvchi Shayboniyxon aks etgan surat kontekstini oʻz romani gʻoyasiga mos tarzda talqin qiladi, xususan, Shayboniyxon oʻtirgan toʻshakning rangi, uning orqasidagi fon va hokazolarni taʼriflab, musavvirning munosabati sultonga nisbatan salbiy boʻlganini koʻrsatishga uringan. Tasviriy sanʼatda ham kontekst asl gʻoyani yoritish uchun xizmat qiladi. Aslida, markazda turgan portret yoki boshqa tasvirlar musavvir ongidagi “matn”dir. U matnni rang va boʻyoqlar yordamida harakatga keltiradi.

Navoiyshunoslikda U. Jo‘raqulov kontekst masalasini birinchi marta mongorafik planga olib chiqdi. U: “Navoiy ‘Xamsa’ sini xronotop poetikasi nuqtayi nazaridan, umuminsoniy badiiy tafakkur kontekstida tadqiq qilish, ayni sabablarga ko‘ra, yangi va zaruriy muammo sanaladi” (14, 3), — deb ta’kidlaydi. Ayniqsa, olimning: “Diniy, falsafiy, badiiy matnlarda har bitta so‘z ulkan kontekstual sistemaning bir bo‘lagi o‘laroq ma‘no tashiydi” (14, 55), — degan xulosasi metodologiya masalasida ahamiyatli. Shuningdek, U. Jo‘raqulovning: jahon va o‘zbek nazariy adabiyotshunosligi “...shoir ijodini kompleks tarzda tadqiq etish, faqat Navoiyga xos poetik birliklarni belgilash, uning jahon adabiyoti kontekstida o‘rganish borasida u qadar ulkan yutuqlarni” qo‘lga kiritmagani haqidagi fikri ham biz tanlagan mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi (14, 3).

Umuman olganda, Alisher Navoiy ijodida kontekst sifatida uning har bir she‘rini qabul qilish mumkin. She‘r ichidagi asl g‘oya, shoir aytishni istagan mazmun esa matnni tashkil qiladi. Matnni namoyish qilayotgan kontekst qirralarini birma-bir aniqlash, ular orasidagi bog‘lanishlarni topish bilan matnning mohiyati, yozuvchining So‘zi oydinlashadi. Buning kontekstual tahlil metodi qoidalarini shakllantirib olish kerak.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kontekst matnni yuzaga chiqaruvchi tizim, yaxlit manzara bo‘lib, kontekstual tahlil matn atrofidagi har bir qirrani, matnni tashkil etuvchi har bir unurni o‘zaro bog‘liq ravishda tadqiq etishdir.

Kontekstual tahlil metodi qoidalariga oid izlanishlar qilayotib, AQShdagi Nebraska-Linkoln universiteti professori S. Behrendt (Stephen C. Behrendt)ning “Matnlarni baholashda kontekstual metoddan foydalanish” deb nomlangan maqolasini topib oldim (28). Menga bu qisqa maqoladagi ma‘lumotlar foydali ko‘rindi va maqolani biroz sharhlashni lozim topdim.

Maqolada matnni kontekstual tahlil qilishga oid tadqiqot uchun yettita savol keltirilgan:

1. *Matn matn sifatida o‘zi bilan bog‘liq nimalarni ochib beradi?*

Bunda til va ritorikani tavsiflash lozim. Ya‘ni so‘zlarga va so‘zlarning joylashuviga diqqat qaratiladi. Jumlada so‘zlar o‘rni almashishi uning ohangi va ma‘nosiga o‘zgarish olib kiradi. Masalan, “Men maktabga boraman” jumlasidagi so‘zlar o‘rnini almashtirib chiqamiz:

1. “Maktabga boraman men”.
2. “Men boraman maktabga”.
3. “Boraman men maktabga”.
4. “Boraman maktabga men”.

Endi esa bu jumladagi so‘zlarning ayrimlarini almashtiramiz:

1. “Kamina maktabga boraman”.
2. “Men maktabga qadam qo‘yaman”.
3. “Maktabga tashrif buyuraman”.

Har bir o‘zgarish jumlagi muayyan kayfiyat va ma‘no yuklaganini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, “Men boraman

maktabga” deb yozilsa, pafos, she’riylik yuzaga chiqsa, “Kamina maktabga boraman” jumlasida kamtarlik ma’nosi seziladi. Ayni paytda har bir jumla o’zidan avvalgi biror so’roq va qandaydir kontekst haqida tasavvur uyg’otadi. Shuningdek, “Maktabga tashrif buyuraman” jumlasini kulgili va mantiqdan yiroq ko’rinadi. Chunki so’zlovchi bunda o’z shaxsini sharaflayotgani namoyon. Bu mantiqsizlikka muallif qasddan yo’l qo’ygan bo’lsa, unda vaziyatga ijobiy qarash zarurati bor, ammo buning uchun yana bu jumla mansub bo’lgan kontekstni anglash kerak bo’ladi.

Mazkur tartibda matn matn sifatida o’zida qanday ma’no, kayfiyat va maqsadni ko’targanini aniqlash mumkin.

Har qanday matn muayyan saviyali insonlar jamoasiga xitob sifatida yangraydi. Shundan kelib chiqib, kontekstual tahlilning ikkinchi savoli shunday:

2. Matn o’zi mo’ljallangan auditoriya haqida nima deyapti?

Tabiiyki, bolalar va kattalar auditoriyasi farqli bo’lgani kabi kattalar orasida o’qimishli, hayot tajribasi bor insonlar va o’qimagan, tajribasiz toifaning o’rtasida sezilarli tafovut uchraydi. Ular bir matnni turli kayfiyat va ma’nolar bilan qabul qiladilar, biri uchun dolzarb ko’ringan matn boshqasiga ahamiyatsiz bo’lishi mumkin. Kontekstual tahlilda matn tili va ritorikasiga qarab, muallif aynan qanday insonlar jamoasini nazarda tutib qalam tebratgani aniqlanadi. Bu haqida matn xususiyatlari so’zlaydi.

3. Muallif bu matnni yozishdan nimani maqsad qilgan?

Ya’ni muallif nima demoqchi?

Eng muhim masalalardan biri bo’lgan bu savol muallif qasdi, murodini oydinlashtiradi. Chunki har qanday matn g’ayriixtiyoriy ravishda yuzaga kelgan bo’lsa-da, uning zamirida muallifning g’oyasi yashirinadi. Muallif ongli yoki mutaassir holda ham o’z asl maqsadini matn mohiyatiga joylashtiradi. Bunda muallif tanlagan so’zlar va u tanlashi mumkin bo’lgan, ammo voz kechgan so’zlarga qaraladi. Har bir so’z mohiyatiga ko’ra muayyan psixologik yukni tashishi nazardan qochirilmaydi.

4. Bu matn qanday sabab bilan yozildi?

Ya’ni muallifni bu matnni yozishga qanday hodisa majburladi? U biror ijodiy ishdan ta’sirlandimi? Yoki biror voqeelikdan larzaga tushdimi? Yoki o’z kuzatuvlarini qog’ozga tushirdimi? Yoki boshqa sabab bormi?

Mazkur savollarga ham matn ichidan, matn kontekstidan javob topish mumkin. Masalan, “Men maktabga boraman” jumlasiga qarab muallif ilm olish uchun boryapti; ota-onalar majlisiga boryapti; ishlaydi, ishlagani boryapti; do’sti bor, do’stini ko’rgani boryapti degan bir qancha xulosalarni qilib, ana shu omillardan biri bu jumlaning (deylik, matnning) yozishga yozuvchini majburlaganini aniqlash mumkin.

5. Matn o’quvchini amaliy harakatga chorlaydimi? Va nima uchun?

Matn o’z o’quvchilaridan qanday harakat bo’lishini xohlaydi? Bu ham matn ohangi va yo’nalishiga qarab aniqlanadi.

6. *Matn faqat mulohaza va fikr bildirish bilan cheklanyaptimi? Va u qanday fikr?*

Ayrim matnlar harakatga da'vat emas, shunchaki, fikr va mulohaza bayoni bo'lishi mumkin. Bu mulohaza o'zidan avvalgi boshqa bir matnga javob yoki savol tarzida yangraydi.

7. *Matnning yaratilishi va uni resipient tomonidan qabul qilinishiga matndan tashqari bo'lgan ta'sirlarni aniqlash imkoni bormi?*

Bu masalaga muallifning yoki o'quvchining shaxsiy holati, tarixiy-siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy vaziyatlar bilan javob topiladi.

Bu amerikalik olimning kontekstual tahlil metodologiyasiga oid qisqa yondashuvi bo'lsa-da, bu uslubga ijodiy yondashib, mumtoz matnlarni o'rganish tajribasiga qo'l urib ko'rish kerak deb o'ylaymiz.

Mazkur metodologiya o'zini oqlaydimi, yo'qmi, masalan, Alisher Navoiy matnlarining bir nechasini shu metod vositasida tadqiq qilib javob bera olamiz. Albatta, yuqoridagi barcha savollarga matndan javob topish mushkul yoki ayrim savollarga javob topish mumkin. Asosiy masala xulosada qoladi. Ya'ni savollarga javob olingach, bu javoblar faqat matn mohiyati, matn zamiriga tayansa, ishonchli xulosaga kela olamiz. Bu xulosa bizga uchta natijani beradi:

1. Muallifning asl g'oyasi, muallifning ijodiy uslubi, muallif mushohada olami, muallif fenomeniga oid hamma muhim nuqtalar ravshanlashadi.

2. Bu natijaga tayanib, matnning muallif variantini yoki bu variantga eng yaqin matnni ishlab chiqa olamiz. Mazkur matn faqat nusxalar orasidagi farqlarga emas, balki muallif dunyoqarashi, fenomeniga, u yashagan davr, tarbiya olgan kontekstlarga mosligi jihatdan ham tekshirilgan sanaladi.

3. Olingan natija orqali muallif va matn mansub bo'lgan davr hamda jahon (yoki mintaqa) adabiyoti kontekstiga yo'l ochish imkoni tug'iladi.

Biz yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, Alisher Navoiy matnlarini kontekstual tahlil qilishda quyidagi mezonlarni belgiladik:

1. Tadqiqot uchun obyekt va uning chegarasini aniqlaymiz.

2. Agar g'azal matnini tanlab olsak, uning har bir bayti (kezi kelsa, har bir satri)dagi kontekstni alohida o'rganamiz.

3. Kontekstdagi tasvir, so'zlar, harakatlarni ajratib, undagi umumiy hissiy yoki fikriy manzarani qo'shimcha izohlarsiz taqdim qilamiz va shoir bergan tasvirni tugal bilishga intilamiz.

4. Har bir bayt (yoki qism)dagi kontekstni birlashtirib, matnning umumiy kontekstini o'rta qo'yamiz. Bu kontekst zamiridagi ma'nolarni undan ayro holda sharhlaymiz. Kitobxonda tushunmovchilik uyg'otadigan hech bir jihat nazardan chetda qolmaydi va e'tibor markaziga olinadi.

5. Agar tanlangan matn kontekstual tahlil natijasida shoir g'oyasini ochiq ifodalama, muallif ana shu pozitsiyani tutgan deb qaraladi hamda adib konsepti yoki adabiy idealini yoritish uchun uning ijodi kontekstidagi boshqa qismlarga murojaat qilinadi.

Kontekstning barcha qismlari birlashtirilgach, har bir “kod”, tamsil va ramz yechimi ma’lum bo’ladi hamda Alisher Navoiy ijodi o’z xususiyatlari bilan tizim ekanligi oydinlashadi. Albatta, klassik qalamkashlarning matnlari barcha qismlari o’zaro mahkam “ulangan” tizim bo’ladi. O’sha tizimni mukammal holda ochib berish kontekstual tahlil metodologiyasining maqsadidir.

Tadqiqot obyekti. Maqola avvalida ta’kidlab kelayotganimizdek, kontekstual tahlil uchun Alisher Navoiyning quyidagi g’azalini tanlab oldik:

ايروړ ليلي وشيم خورشيد مهوش لار اراسين دا
قمر بير كلخني مجنون انينك عشقي هواسين دا

ايريشماك اول قوياش رخساره ليغ ني ممكن ايرماس كيم
رقيب تيره منظر سايه ينكليغ دور قفاسين دا

قاشينك هر لهظه اويناتسانك قار ارغان كوز بارور كويا
يانكي آينك ايرور مصقل بو كوزكو نينك جلاسين دا

نهايت سيز غمينك يب پيكريم آنداق عظيم اولميش
كه اوزكا عالم ايستار سيغماين عالم فضاسين دا

قرا دين كوزكا حاصل تيره ليك دور يوق كه روشن ليق
ني قيلميش كلك قدرت كوز بيله قاشينك اراسين دا

طبيبا هجر مهلك كا دوا دور وصل و سود ايتماس
اكر جان شيره سين ايزكونك انينك دردي دوا سين دا

ايكي جادو كوزونك كا شرح حاليم دين ترخوم يوق
اكرچه سحر لار قيلغوم دورور آينك اداسين دا

توزوب مجلس اساسين ساقيا عقليم ني زال قيل
كه حيرت عاجز ايتميش چرخ نينك عالي اساسين دا

Birinchi vazifamiz matn kontekstida nimalar (qanday tasvirlar) borligini aniqlab olishdan iborat. Shundan so’ng kontekst ichidagi matnga kirib boramiz.

Birinchi bayt konteksti:

ايروړ ليلي وشيم خورشيد مهوش لار اراسين دا
قمر بير كلخني مجنون انينك عشقي هواسين دا

- 1) quyoshdek porlagan laylovash yor va mahvashlar davrasi;
- 2) oy (qamar) va ishq havosi.

Birinchi kontekstdan nimalar ma’lum bo’lmoqda?

- 1) so’zlovchi (roviy) – oshiq;
- 2) uning sevgilisi Laylo kabi go’zal;
- 3) oy kabi suluvlar orasida u quyoshdek porlaydi.

Osmonda quyosh porlasa, oying nuri g’oyib bo’ladi. Quyosh va Oy o’zaro qiyoslanishi mumkin emas. Demak, o’zga go’zallarni oshiqning sevgilisi bilan muqoyasa qilish mantiqqa to’g’ri kelmaydi.

Roviy oshiq bo’lgani uchun ham unga mahbubi hammadan ahsan ko’rinadi.

Ikkinchi kontekst zohir etayotgan mazmun:

- 1) gulxanning yonishi majnunlik harakatlariga o'xshaydi;
- 2) majnunlik harakatlari gulxanning yonishiga o'xshaydi;
- 3) qamar (oy) go'zallik ramzi bo'la turib, oshiqning sevgilisiga shaydo;

4) u bu shaydolik natijasida olovdek to'lg'anayotgan majnunga yoki majnundek esini yo'qotgan olovga aylangan.

Ishq — havo, havo — ochiqlik, cheksizlik, bo'shliqqa ishora, havo ichidagi gulxan havoga nisbatan juda kichik, havoni qoplab olish quvvatidan yiroq, ammo havo bo'lmasa gulxan yonmaydi, qamarning oshiqning sevgilisi qoshidagi muhabbati ana shunday zaif, ana shunday haqir.

Xurshid (quyosh), qamar (oy), havo, gulxan — kontekst unsurlari bo'lib, manzarani hosil qilish uchun bu unsurlar birlashgan holda harakatga kelgan. Bu harakatga esa oshiqning muhabbati ma'no beryapti.

Ikkinchi bayt konteksti:

ایریشماک اول قویاش رخساره لیغ نی ممکن ایرماس کیم
رقیب تیره منظر سایه ینکلغ دور قفاسین دا

- 1) quyosh ruxsoralari ma'shuq;
- 2) tiyra manzar soya kabi raqib.

Erishmoq — ergashish. Har kimning ortida soyasi bor. Ammo u go'zalning ortidan soyaning ergashishi imkonsiz. Chunki u — quyosh yuzli! Quyoshning soyasi bormi?! Soyaning ko'rinishi, vujudi qora rangda. Raqib, ya'ni oshiqning sevgilisiga da'vogar bo'lgan shaxs borlig'i qoralikdan iborat soyadek, u baribir quyoshruksorliga ergasha olmaydi, Quyoshning soyasi qutulish mumkin bo'lmagan qafasda qolganidek u ham o'z qafasida.

Quyosh, soya, qafas kabi kontekst unsurlari raqib oshiqning sevgilisiga yeta olmasligi ma'nosini o'rta qo'yish orqali oshiqning ishq o'ta pok va yuksakligini iddao qilmoqda.

Uchinchi bayt konteksti:

قاشینک هر لظه اویناتسانک قار ارغان کوز یارور کویا
یانکی آینک ایرور مصقل بو کوزکو نینک جلا سین دا

- 1) qosh, qoraygan ko'z;
- 2) yangi oy, misqal, ko'zgu, jilo.

Oshiq sevgiliga xitob qilishidan ma'lumki, sevgili qoshini o'ynatadi. Bu esa oshiqning qoraygan ko'zlarini yorishtiradi. Aslida, ko'z – ko'zgu. U olamni o'zida aks ettiradi. Ammo oshiqning ko'zi qoraygan – u hech narsani aks ettirmayapti. Sevgilining qoshi esa ikkita yangi oy. Misqal – pichoq, xanjar, shamshirni sayqallaydigan asbob (13, 212). Oshiqning ko'zlari ko'zguni sevgilining qoshlari misqal kabi sayqalladi, natijada, unda olam go'zalliklari jilolana boshladi. Kontekstdagi manzara, harakat shundan iborat. Undan anglanadigan ma'no shuki, sevgili, avvalo, qosh o'ynatib oshiqni o'ziga shaydo qilgan, oshiq ishqqa muhtalo bo'lgach, unda zavqu-shavq uyg'ongan, ya'ni u muhabbat sababli olamni ko'ra boshladi, tiriklik mohiyatini anglab yetdi.

To'rtinchi bayt konteksti:

نهایت سیز غمینک یب پیکریم انداق عظیم اولمیش

که اوزکا عالم ایستار سیغماين عالم فزاسين دا

- 1) nihoyatsiz g'am;
- 2) oshiqning ulkanlashgan paykari (jismi);
- 3) bu olam fazosi;
- 4) o'zga olam.

Nihoyatsiz g'amni yetaklab kelgan — sevgili. Shuning uchun oshiq “nihoyatsiz g'aming” ta'rifini qo'llagan. G'am nima uchun keldi? Va nima uchun u nihoyatsiz, ya'ni tugamaydi?

Oshiqning yagona g'ami – sevgili diydori sog'inchi hamda ayriliqdir. Bu g'amning nihoyasiz ekani mahbub diydoriga to'yib bo'lmasligi va cheksiz sog'inchidir. G'am lahzama-lahza ko'payadi. Undan xalos bo'lish imkoni yo'q. Oshiq esa bu g'amni yeydi. Natijada, uning paykari — jasadi ulkanlashadi. Shu qadar ulkanlashadiki, bu olam fazosiga sig'may qoladi. Demak, bu g'am unga olamni tor qilib qo'ydi, endi u bu olamdan chiqib ketishni, bu g'am bilan ham sig'ishi mumkin bo'lgan o'zga olamni izlayapti.

Kontekstdagi bu holat oshiqdagi ruhiyat maqomini behad yuksalgani xulosasini taqdim qiladi. Bu olamning ichida tog'lar, daryolar, dengizlar, qudrat va shukuh, lazzat va shodliklar bor, ularning hech biri oshiqqa kerak emas, ko'rinyaptiki, oshiq moddiy dunyo kishanlarini sindirgan.

Beshinchi bayt konteksti:

قرا دين كوزكا حاصل تيره ليك دور يوق كه روشن ليق
نى قيلميش كلک قدرت كوز بيله قاشينك اراسين دا

- 1) qaro;
- 2) ko'z;
- 4) tiyralik;
- 5) ravshanlik;
- 6) kilki qudrat;
- 7) ko'z va qosh orasi.

Ko'zning o'zi qorachiq va ko'z kosasidan iborat. Ana shu ko'z qorong'ulikda ko'rmaydi, unga “qarodan tiyralik hosil” bo'ladi, yorug'lik emas. Ammo bu yerda ajablanadigan bir nuqta bor. qonuniyat buzilyapti: qoralik ko'zni ravshanlashtirmoqda! Nima uchun? Qudrat qalami go'zal mahbubning qoshi va ko'z orasiga qanday sir berkitgan ekanki, mana shu oraliqda u nimani chizgan ekanki, “qarodin ko'zga tiyralik hosil bo'lmayapti”, balki “ravshanlik” bo'lmoqda?!

Kontekstdan namoyon bo'layotgan mazmun shu. Ko'z va qosh orasida kipriklar bor. Ko'z va qosh qora bo'lgach, kipriklar ham qora bo'lishi tabiiy. Aynan ana shu kipriklar oshiqning ko'zlarini nurga to'ldiryapti. Ana shu kipriklarga termilib, oshiqning nigohlari ravshanlashmoqda. Kontekst manzarasi zamiriga yashirilgan ma'no shu.

Oltinchi bayt konteksti:

طيبيا هجر مهلك كا دوا دور وصل و سود ايتماس
اكر جان شيره سين ايزكونك انينك دردى دوا سين دا

- 1) tabib;
- 2) hajri muhlik;
- 3) davo;

- 4) vasl;
- 5) jon shirasi;
- 6) dard.

Kontekstda tabib paydo bo'ldi. U oshiqning dardidan xabar topgan. Oshiqning xasta ekanini biladi. U oshiqni tuzatmoqchi, dardiga darmon bag'ishlashni istaydi. Lekin oshiq o'z holini tabibdan ko'ra yaxshiroq anglaydi. Shuning uchun tabib jon shirasini ezib bersa ham, halok etguvchi bu hajrga davo bo'lmasligini ta'kidlaydi. Ya'ni hijron alal-oqibat uni halok etadi baribir. Qutulish yo'q. Chunki yagona shifo — visolda.

Bayt kontekstidan tushuniladiki, oshiqning g'ami atrofdagilarni ham bezovta eta boshlagan.

Yettinchi bayt konteksti:

ایکی جادو کوزونک کا شرح حالیم دین ترخوم یوق
اکرچه سحر لار قیلغوم دورور آنینک اداسین دا

- 1) ikki jodu ko'z;
- 2) sharhi hol;
- 3) sehr.

Kontekst unsurlari ko'rsatayotgan jarayon shuki, ikki ko'z jodu bilan mashg'ul; oshiq ham sehr qilish ilmini biladi. Ikki ko'zning jodusi nazar solishdan iborat; oshiqning sehri-chi?

Bu savolning javobi boshqa bir kontekstga o'tishni taqozo qiladi. Bu Alisher Navoiy ta'lim olgan kontekst. Alisher Navoiy hadis ilmidan xabardor bo'lgan va hadislardan birida: "Albatta, bayonda sehr, she'rda hikmat bor", – deyiladi.

Biz o'rganayotgan bayt kontekstidagi oshiqning sehrgarligi o'z holatini ustalik bilan, inson rahmini keltiradigan darajada bayon qilishidir. Ammo uning bu sehri oshiqning ikki ko'zi jodusini yenga olmaydi, ikki ko'z o'z jodusi bilan oshiqning holiga rahm qilmaydi.

Kontekstdan ma'lum bo'lmoqdaki, sevgili oshiqni o'ziga shaydo qilishda davom etmoqda, ayni paytda, uning oshiqning ahvoli bilan ishi yo'q, unga oshiqning dod-u faryodi qiziq emas.

Sakkizinchi matn konteksti:

توزوب مجلس اساسین ساقیا عقلم نی زایل قیل
که حیرت عاجز ایتمیش چرخ نینک عالی اساسین دا

- 1) soqiy;
- 2) majlis;
- 3) asos;
- 4) aql;
- 5) hayrat;
- 6) charx.

Kontekstga ko'ra, oshiq endi soqiyga murojaat qilmoqda. Undan majlis tuzishini iltimos etadi. U majlisning xususiyati shuki, odamni aqlidan ayiradi. Oshiq aqli uni tark etshini xohlayapti. Demak, aqldan oshiqqa ozor yetyapti. Aqldan ozor yetmasa, oshiq undan nima uchun voz kechyapti?!

Bu birinchi masala.

Ikkinchi masala esa aqlning ketishi oshiq uchun xayrlimi, aql ketsa, u o'z maqsadiga erishadimi degan savol bilan bog'liq.

Qolaversa, soqiyning maqomi oshiqqa nisbatan ulug'ligi ko'rinmoqda. Chunki oshiq soqiy qoshida aqlidan ayrilishga tayyor.

Shu bilan bir qatorda oshiq hayratdan so'z ochdi. Hayrat ancha qudratli ekan. Chunki u aqlni ojiz qilib qo'yibdi. Hayrat esa charxning oliy asosi qarshisida paydo bo'lgan.

Charxning oliy asosi nima?

Charx – osmon. Osmon baland va oliy. Asos uni tutib turadi. Uning ulug'vorligidan aqlda hayrat uyg'ongan. Hayrat aqlni ojiz etdi. Oshiq esa bu aqldan butkul voz kechmoqchi. Shu maqsadda soqiydan majlis tuzishini so'radi. Soqiy tuzadigan majlisda may ichiladi, tabiiy. Nima uchun oshiq mayni yolg'iz ichmoqchi emas? Aynan majlis istayotganining sababi nima?

Majlis ham mast bo'lishni istaganlardan iborat bo'ladi. Ya'ni majlisga oshiqning hamdardlari keladi. Ular ham soqiyning may uzatishiga mahtal.

Kontekstda kitobxonga ko'rinadigan mazmun, axborot shundan iborat.

Biz g'azal baytlarining har birini alohida kontekst sifatida ko'rib chiqdik. Endi esa bu kontekstlarni jamlasak, g'azal konteksti va uning ichidagi matn namoyon bo'lishi lozim. Bu o'rinda biz baytlar ketma-ketligiga amal qilmaymiz, chunki baytlar tartibi va ulardagi voqealar umumiy kontekstga aylanganda mantiqan tizim boshqacha ko'rinadi: qoshi, ko'zi, kipriklari qora va go'zal mahbub oshiqni o'ziga rom qildi. U qoshlarini o'ynatib, noz va ishvalari bilan uni butkul bog'lab oldi. Oshiq sevgilisining behad go'zalligini ko'rdi, bunga amin bo'ldi, ishqdan so'ng u zavq-u shavqni, g'am va qayg'uni topdi. Oraga tushadigan raqiblarning maqomlari o'ta quyi ekanligiga guvoh bo'ldi. Uni davolash uchun kelgan tabibga dardi hijron bo'lib, davosi yolg'iz shifo ekanligini so'yladi.

Kontekst bo'ylab xitoblar uch kishiga qaratilgani ma'lum: sevgilisiga, tabibga, soqiyga. Barcha mojaro, g'avg'o va azob-uqubatlar sevgilisining husn-u jamoli sababli sodir bo'lmoqda, oshiq ana shu husn-u jamolga parvona, ammo soqiyga murojaat mazmuni g'azalning butun kontekstdan farqlidek. Aslida esa falakning oliy asosiga nazar solgan oshiq uning ham bir kuni yiqilishi, osmonning ulug'vorligiga putur yetishini anglagach, hayratdan dong qotib qoldi, so'ng o'z yo'li – ishqning haq va to'g'ri yo'l ekanligini ko'rgach, uni yanada ziyoda bo'lishini istab, may majlisiga talabgor bo'ldi. Aqldan voz kechishga bo'lgan istakning sababi shuki, aql ishqqa mone bo'lib, oliy asosli falak ostida ishqning azoblarisiz xotirjam yashashni istaydi. Shu sabab ham oshiq bu aqlning zoyil bo'lishini xohlaydi.

Kontekstdan chiqadigan xulosa shuki, olam o'tkinchi, aql hayratlanishga qodir, ammo ishq oldida u zaif, ishqning qaynog'i (manbai) sevgilining go'zal jamoli, ishqqa moddiy olamda shifo yo'q, ishqning yagona davosi – visol, asl visol esa omonat turgan olamda bo'lishi mumkin emas, uning uchun asosi mustahkam, aslo yemirilmaydigan boshqa olam sahnasi lozim. Matnning bosh g'oyasi shu. Lekin bu kitobxon uchun to'kis fikrni, tugal xulosani, qoniqtiradigan bir to'xtamni taqdim qilmaydi. Shunday bo'lsa-da, bu

matn shoirning ishq bobidagi iztirobi, qayg'usi hosilasi ekanligi, ruhiy va ma'naviy og'riqlar muallifni bu matnni yozishga majburlagan omil deb xulosa qilish mumkin.

Oshiq nega ma'shuqni sevishi kerak? Ma'shuq, aslida, kim? Ishqning asl zotida nima bor? Bu savollar esa ochiq qoladi.

Kontekstual tahlilning xususiyati ham shu. Sababi bu g'azal matnini tushunish uchun uni u o'rin olgan devon kontekstida o'rganish lozim. Ya'ni bu g'azal "G'aroyib us-sig'ar" kontekstida kelayotgan ekan, devondagi boshqa g'azallarni ham o'rganib chiqish, ular ichidan qaysi biri mazkur matn bilan muvofiq kelishini topish lozim. Biz o'rgangan matndagi ishq, oshiq, ma'shuq va uning atrofidagi kontekst botinidagi ma'no kalitlari boshqa matnlar ichiga berkitilgan. Shu tariqa devon yaxlit tizim yoki kontekst sifatida qanday konseptni, qanday ijodiy g'oyani ko'tarib kelayotgani ma'lum bo'ladi.

Bu endi kontekstual tahlilning ikkinchi bosqichidagi tadqiqot hisoblanadi.

Kezi kelganda qayd etib o'tishimiz joizki, Alisher Navoiy matnlarini o'rganishda keyingi paytlarda sharh usulidan keng foydalanilmoqda. Xususan, N. Komilov (25), O. Davlatov (9), D. Yusupova (10), K. Mullaxo'jayeva (11), B. To'xlijev (11, 68–72), Z. Mamadalieva (10) va boshqalarning ishlari shular jumlasidanlir. Bu borada tizimli izlanishlar O. Davlatovning "Ma'nolar xazinasi" seriyali tadqiqotlarida o'z natijasini ko'rsatmoqda (9), shuningdek, ushbu satrlar muallifining "Hayrat ul-abror" dostoniga yozgan sharhini ham misol sifatida keltirish mumkin (12).

Biz ilgari surayotgan masala sharh emas, balki sharhdan farqlanuvchi tadqiqot hisoblanadi. Zikr etib o'tilgan sharhlar qo'shimcha materiallar, manbalar asosida matn ma'nosini ochib berishni maqsad qilgan bo'lsa, kontekstual tahlil vositasida matnning tub mohiyatiga, shoirning bosh g'oyasiga, pirovardda muallifning asl matnigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tish kutiladi. Bunda imkon qadar qo'shimcha, matndan tashqari bo'lgan manbalarga murojaat qilinmaydi, balki kontekstlar bo'ylab tahlillar olib boriladi, matn mohiyatiga kontekstning o'zidan javob izlanadi. Chunki mumtoz matn kontekst orqali o'z mohiyatini namoyon etishi bilan o'z sifatiga munosibdir. Inchunun, Alisher Navoiy matnlari.

Xulosa. 1. Alisher Navoiy asarlari matnlarini o'rganish navoiyshunoslikda, asosan, qo'lyozma nusxalarni o'zaro solishtirish, ularning farq va nuqsonlarini aniqlash va tavsif berish doirasida bo'lib, bu tadqiqotlar natijasida shoir asarlarining mukammal va to'la asarlari to'plamlari nashrdan chiqqan.

2. Navoiyshunoslikdagi tanqidiy matn tuzish tadqiqotlari sobiq Sovet tuzumi mafkurasi sanalgan ilmiy institutlarda shakllangan bo'lib, u shoir matnlari zamiriga kirib borishni nazarda tutmaydi. Shuning uchun Alisher Navoiy matnlari ustida matnshunoslik mezonlari bilan ishlash o'tgan asrning 90-yillariga kelib deyarli to'xtab qoldi. Buning yana bir omili eski turkiy alifbo masalasidagi savodsizlikka ham taqaladi.

3. Alisher Navoiy asarlari matnlarini tadqiq qilishda kontekstual tahlil metodologiyasidan foydalanish matnlardagi yangi imkoniyatlarni ochadi. Kontekstual tahlil metodi shoir matnlarini bir butun tizim sifatida yagona ma'no sathida ko'rishni taqozo qiladi. Kontekstual tahlil matnning turli qismlarini o'zaro mantiqan birlashtirishni taqozo qiladi. Shuningdek, shoirning turli asarlari, ulardagi ramz, timsol, axborot va obrazlarning ham o'zaro bog'lanadigan nuqtalarini topish talabini o'rta qo'yadi.

4. Kontekstual tahlil metodiga ko'ra, Alisher Navoiy asarlarini mo'tabar va qadimiy nusxalardan foydalanib, ulardagi matnlarni mexanik qiyoslagan holda tadqiq qilish shart.

5. Biz ushbu maqolada kontekstual tahlilga bir namuna ko'rsatdik (ammo bizning tahlilimiz mukammal va o'zimiz orzu qilgandek emas, balki ibtidoiy urinish hisoblanadi), bu bilan kontekstual tahlil sathi va chegarasi juda katta bo'lib, birgina tahlil bilan tugal xulosa qilish mumkin emasligi isbotlandi. Kontekstual tahlil tadqiqotchidan kengroq va balandroq ilmiy fazoga ko'tarilishni talab qiladi. Birgina she'rning konteksti shoirning butun ijodi kontekstiga, u orqali davr kontekstiga o'tishni ham taqozo etishi mumkin. Bunda biror ma'lumot, biror xulosa havodan olinmaydi, balki mustahkam asoslar ustida turib to'xtamlar beriladi. Shu tariqa Alisher Navoiy matnlarining asliga, boshqacha aytganda, matnning muallif tahririga, muallif dastxatiga yetib borish, ishonchli nusxaga erishish mumkin. Bu juda katta va mashaqqatli tadqiqot yo'lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. *Девони Фоний* (Давоми): Қасидалар, муфрадот, иловалар. МАТ. 20 жилдлик. 20-жилд. — Тошкент: Фан, 2003. — 567 б.
2. Алишер Навоий. *Куллиёт*. Тўпқопи саройи музейи кутубхонаси. Инв.: Реван 808. Факсимил нашр. Нашрга тайёрловчи: Гунай Кут. — Истанбул, 2020. — 1677 б.
3. Алишер Навоий. *Муҳокамат ул-луғатайн*. Танқидий матн. Тайёрловчи: Ю.Турсунов. — Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт, 2021. — 160 б.
4. Алишер Навоий. *Куллиёт*. — Француз Миллий кутубхонаси. Инв.: Turc 316, Turc 317.
5. Алишер Навоий. *Сабъаи сайёр*. Илмий-танқидий матн. Нашрга тайёрловчи: П. Шамсиев. — Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1956. — 221 б.
6. Алишер Навоий. *Фарҳод ва Ширин*. Илмий-танқидий матн. Нашрга тайёрловчи: П. Шамсиев. — Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1963. — 234 б.
7. Алишер Навоий. *Ҳайрат ул-аброр*. Илмий-танқидий матн. Нашрга тайёрловчи: П. Шамсиев. — Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1970. — 242 б.
8. Алишер Навоий. *Айёми васл ўлди яна*. Янги топилган ғазаллар. Нашрга тайёрловчи: Ф. Сулаймонова, масъул муҳаррир: А. Рустамов. — Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. — 78 б.

9. Алишер Навоий. *Маънолар хазинаси*. Матн. Ж. 1: асар. / О. Давлатов. — Тошкент: Tamaddun, 2021. — 332 б.
10. Алишер Навоий. *Ғаройиб ус-сигар*. Ғазалларнинг шарҳи ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 1-жилд. — Тошкент: O‘ZKITOBSAVDO, 2020. — 260 б.
11. Алишер Навоий. *Ғаройиб ус-сигар*. Ғазалларнинг шарҳи ва изоҳлари. Ўн жилдлик. 5-жилд. — Тошкент: O‘ZKITOBSAVDO, 2020. — 260 б.
12. Алишер Навоий. *Ҳайрат ул-аброр*. Матн, луғат, шарҳ. Шарҳлар муаллифи: А. Малик. 1-китоб. — Тошкент: Tamaddun, 2021. — 472 б.
13. Хоксор, Муҳаммад Ризобек. *Мунтахаб ул-луғот / Зубд ул-луғот*. — Тошкент: Akademnashr, 2017. — 416 б.
14. Жўракулов У. *Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси*. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. — Тошкент, 2016. — 445 б.
15. Исломов Ҳомидхон. *“Насойим ул-муҳаббат” Алишера Навои и его научно-критический текст (Алишер Навоийнинг “Насойим ул-муҳаббат” асари ва унинг илмий-танқидий матни)*. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... — Тошкент, 1990. — 145 стр.
16. Рашидова Маъмура. *Алишер Навоий “Назм ул-жавоҳир” асарининг матний тадқиқоти*. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... — Тошкент, 1991. — 210 б.
17. Сулаймонов Ҳ. *Текстологическое исследование лирики Алишера Навои (Алишер Навоий лирикасининг матншунослик тадқиқоти)*. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... — Москва, 1961. — 395 б.
18. Султонов Иззат. *Навоийнинг “Мезон ул-авзон” асари ва унинг критик тексти*. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... — Тошкент, 1947. — 144 б.
19. Халилов Латиф. *Алишер Навоий “Тарихи мулуки Ажам” асарининг текстологик тадқиқоти*. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... — Тошкент, 1975. — 147 б.
20. Ҳамидова Мавжуда. *Алишер Навоий “Садди Искандарий” достонининг илмий-танқидий матни ва матний тадқиқи*. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... — Тошкент, 1994. — 174 стр.
21. Ғаниева С. *“Маджалис-ун-нафаис” Алишера Навои (литературно-исторический анализ м критический текст III и IV маджлисов)*. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... — Москва, 1956. — 165 б.
22. Шамсиев П. *Навоий асарлари матнларини ўрганишининг баъзи масалалари*. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... — Тошкент, 1969. — 474 б.

23. Шамсиев Порсохон. *Алишер Навоий “Сабъаи сайёр” достонининг илмий-критик тести ва уни тузиш принциплари ҳақида*. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... — Тошкент, 1952. — 146 б.
24. Исҳоқов Ё. *Навоий поэтикаси*. — Тошкент: Фан, 1983. — 168 б.
25. Комилов Н. *Маънолар оламига сафар*. — Тошкент: Tamaddun, 2012. — 316 б.
26. Раҳмонов В. *Мумтоз сўз сехри*. — Тошкент: O‘zbekiston, 2015. — 440 б.
27. Сирожиддинов Ш. *Матншунослик сабоқлари*. — Тошкент: Navoiy universiteti, 2019. — 128 б.
28. Behrendt S. 2008. *Using Contextual Analysis to evaluate texts*. University of Nebraska-Lincoln. — URL: <https://english.unl.edu/sbehrendt/StudyQuestions/ContextualAnalysis.html> Фойдаланилган сана: 03. 11. 2023.
29. Торсуева И. *Контекст*. Манба: <http://tapemark.narod.ru/les/238b.html> Фойдаланилган сана: 01. 11. 2023.
30. Контекст. Манба: <https://terme.ru/termin/kontekst.html> Фойдаланилган сана: 03. 11. 2023.

References

1. Alisher Navoiy. *Devoni Foni* (Continued): Odes, curriculum, applications, MAT. 20 volumes, Volume 20, Tashkent: Science, 2003, 567 p.
2. Alisher Navoiy. *Kulliyat*. Topkapi Palace Museum Library, Inv.: Revan 808. Facsimile edition, Prepared by: Gunay Kut. Istanbul, 2020.
3. Alisher Navoiy. *Muhokamat ul-lughatayn*. Critical text. Prepared by: Yu. Tursunov. Tashkent: Publishing house named after Gafur Ghulam, 2021, 160 p.
4. Alisher Navoiy. *Kulliyat*. French National Library, Inv.: Turc 316, Turc 317.
5. Alisher Navoiy. *Sab’ai sayyor* (Seven travellers). Scientific and critical text, Prepared for publication: P. Shamsiev, Tashkent: UzSSR FA publishing house, 1956.
6. Alisher Navoiy. *Farhod va Shirin* (Farhad and Shirin) Scientific and critical text. Prepared for publication: P. Shamsiev, Tashkent: UzSSR FA publishing house, 1963.
7. Alisher Navoiy. *Hayrat ul-abror* (Wonders of good men). Scientific and critical text, Prepared for publication: P. Shamsiev, Tashkent: UzSSR FA publishing house, 1970.
8. Alisher Navoiy. *Ayyomi vasl uldi yana* (Again it is time to meet). Newly discovered ghazals. Prepared for publication: F. Sulaimanova, responsible editor: A. Rustamov, Tashkent: Literature and Art Publishing House, 1995, 78 p.
9. Alisher Navoiy. *Ma’nolar hkazinasi* (A treasure of meanings), Tashkent: Tamaddun, 2021, 332 p.

10. Alisher Navoiy. *Gharoib al-sighar* (Wonders of childhood). Review and comments of ghazals. Ten volumes. Volume 1. Tashkent: UZKITOBSAVDO, 2020, 260 p.
11. Alisher Navoiy. *Gharoib al-sighar* (Wonders of childhood). Review and comments of ghazals, Ten volumes, Volume 5, Tashkent: UZKITOBSAVDO, 2020, 260 p.
12. Alisher Navoiy. *Hayrat ul-abrar* (Wonders of good men). Text, glossary, review. Comment author: A. Malik, Book 1, Tashkent: Tamaddun, 2021, 472 p.
13. Khoksoy Muhammad Rizabek. *Muntakhab ul-lughot / Zubd ul-lughot*, Tashkent: Akademnashr, 2017, 416 p.
14. Dzhorakulov U. *Alisher Navoiy "Khamsa" sida khronotop poetikasi* (Chronotope poetics in "Khamsa" by Alisher Navoi): Doctor's thesis, Tashkent, 2016.
15. Islamov Hamidkhan. *"Nasojim ul-muhabbat" Alishera Navoi i ego nauchno-kiriticheskiy tekst* (Alisher Navoi's work "Nasoyim ul-muhabbat" and its scientific-critical text): candidate's thesis, Tashkent, 1990.
16. Rashidova Ma'mura. *Alisher Navoiy "Nazm ul-javohir" asarining matniy tadqiqoti* (Textual study of Alisher Navoi's work "Nazm ul-Javahir"): candidate's thesis, Tashkent, 1991.
17. Sulaymanov H. *Tekstologicheskoe issledovanie liriki Alisher Navoi* (Textological study of Alisher Navoi's lyrics): Doctor's thesis, Moscow, 1961.
18. Sultan Izzat. *Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asari va uning kritik teksti* (Navoi's Mezon ul-Awzon and its critical text): Candidate's thesis, Tashkent, 1947.
19. Khalilov Latif. *Alisher Navoiy "Tarixi muluki Ajam" asarining tekstologik tadqiqoti* (Textological study of Alisher Navoi's work Tarikhi Muluki Ajam): Candidate's thesis, Tashkent, 1975.
20. Hamidova Mavluda. *Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining ilmiy-tanqidiy matni va matniy tadqiqi* (Scientific-critical text and textual analysis of Alisher Navoi's "Saddi Iskandari" epic): Candidate's thesis, Tashkent, 1994.
21. Ganieva S. *"Madjalis-un-nafais" Alishera Navoi (literaturno-istoricheskiy analiz m kriticheskiy tekst III i IV madjlisov)* ("Madjalis-un-nafais" Alishera Navoi (literary-historical analysis of critical text III and IV of Madjlis): Candidate's thesis, Moscow, 1965.
22. Shamsiev P. *Navoiy asarlari matnlarini urganishning ba'zi masalalari* (Some problems in the study of the texts of Navoi's works): Doctor's thesis, Tashkent, 1969.
23. Shamsiev Porsokhan. *Alisher Navoiy "Sab'ai sayyor" dostonining ilmiy-kritik teksti va uni tuzish prinsiplari haqida*, (Alisher Navoi on the scientific-critical test of the epic "Sabai Sayyor" and the principles of its composition): Candidate's thesis, Tashkent, 1952.
24. Ishakov Y. *Navoiy poetikasi* (Navoi Poetics), Tashkent: Fan, 1983, 168 p.

25. Komilov N. *Ma'nolar olamiga safar* (Journey to the world of meanings), Tashkent: Tamaddun, 2012, 316 p.
26. Rahmonov V. *Mumtoz suz sehri* (Classic Word Magic), Tashkent: Uzbekistan, 2015, 440 p.
27. Sirojiddinov Sh. *Matnshunoslik saboklari* (Lessons in Textual Studies), Tashkent: Navoiy universiteti, 2019, 128 p.
28. Behrendt S. 2008. *Using Contextual Analysis to evaluate texts*. University of Nebraska-Lincoln. Available at: <https://english.unl.edu/sbeherdt/StudyQuestions/ContextualAnalyses.html> Date of use: 03. 11. 2023.
29. Torsueva I. *Kontekst* (Context). Available at: <http://tapemark.narod.ru/les/238b.html> Date of use: 01. 11. 2023.
30. <https://terme.ru/termin/kontekst.html>